

## OT SO'Z TURKUMINING KO'MAKCHILASHISHI

**Mamarasulova Iroda,**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi*

[Irodamamarasulova48@gmail.com](mailto:Irodamamarasulova48@gmail.com)

*Ilmiy rahbar: Sh.U.Erbutayeva O'zbekiston-Finlandiya pedagogika  
instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot ishimizda so'z turkumlari o'rtasida sodir bo'luvchi ko'makchilashish hodisasi va ot so'z turkumiga tegishli bo'lgan ayrim so'zlarning o'zining leksik ma'nosidan tashqari ko'makchi vazifasida ham kelish holatlari ayrim misollar orqali ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Transpozitsiya, ko'makchilashish, ot so'z turkumi, qo'yin, og'ush, lab, yoqa, kift kabilar.

## İSIMLERIN YARDIMCILARA DÖNÜŞÜMÜ

**Mamarasulova Iroda,** *Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi*

*Bilimsel danışman: Sh.Ü. Erbutayeva - kıdemli öğretim görevlisi, özbek dili ve edebiyatı  
bölümü, Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü*

**Özet.** Bu araştırmada, sözcük sınıfları arasındaki yardımcı ilişki olgusu ve isim sınıfına ait bazı sözcüklerin, sözlüksel anlamlarının yanı sıra yardımcı sözcük olarak da işlev gördüğü durumlar örneklerle gösterilmiştir.

**Anahtar kelimeler.** Aktarma, tamamlama, isim tamlaması, koyun, og'ush, lab, yaka, omuz.

## СТАНОВЛЕНИЕ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В ПОСЛЕСЛОГИ

**Мамарасулова Ирода,**

*студентка Узбекско-Финского педагогического института*

*Научный руководитель: Ш.У. Эрбутаева - старший преподаватель кафедры  
узбекского языка и литературы Узбекско-финского педагогического института*

**Аннотация.** В данном исследовании на примерах демонстрируется явление вспомогательных отношений между классами слов и случаи, когда некоторые слова, принадлежащие к классу существительных, в дополнение к своему лексическому значению выполняют также функцию вспомогательных слов.

**Ключевые слова.** Транспозиция, дополнение, именная группа, овца, огуш, лаб, воротник, плечо и т. д.

## THE FORMATION OF NOUNS INTO SLOGS

**Mamarasulova Iroda,** *Uzbek-Finnish pedagogical institute  
student of the Uzbek language and literature department*

**Abstract.** In this research, the phenomenon of auxiliary relations between word classes and the cases where some words belonging to the noun class, in addition to their lexical meaning, also function as auxiliary words are shown through some examples.

**Keywords.** transposition, complementation, noun phrase, hug, sleeve, lab, collar, shoulder, etc.

Bizga ma'lumki, transpozitsiya hodisasi tilshunoslikning muhim mavzularidan biri bo'lib, so'z turkumlarining bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tish jarayonini o'rganadi. Ma'lum bir turkumga mansub so'zning o'ziga xos bo'lgan atash, vazifa semasini kuchsizlantirib, boshqa so'z turkumiga xos semantik va grammatik belgiga ega bo'lishiga transpozitsiya deyiladi. U so'z turkumlari o'rtasidagi o'zaro almashinuv natijasida vujudga keladi. Ana shunday jarayonlarda turkumlar o'rtasida ko'makchilashish hodisasi ham sodir bo'ladi.

Ma'lum bir turkumga tegishli bo'lgan so'zning o'zining leksik ma'nosidan tashqari boshqa bir turkumdagi so'zning vazifasini bajarib kelishiga ko'makchilashish deyiladi. Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik ma'nosini yo'qotgan. Grammatik ma'no va grammatik vazifaga ega. O'zbek tilida yordamchi so'zlar, shu jumladan, ko'makchilar, shakliy-funksional tomondan ancha o'rganilgan. 20-asrning 20-yillarida yaratilgan Abdurauf Fitratning "Sarf"; M.Qori, Q.Ramazon, Sh.Zunnunlar muallifligida nashr qilingan "O'zbekcha til saboqligi" asarlarida bog'lovchi atamasi keltirilmaydi. Bu turdagi so'zlar ko'makchi deb yuritiladi.[2,3.]

Ko'makchilarning til tizimidagi tutgan o'rni xususidagi bir nechta ilmiy xulosalarga tayanib, aytish mumkinki, ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar hisoblanib, o'z leksik ma'nolariga ega bo'lgan, ammo davrlar o'tishi bilan bu leksik ma'nolarni yo'qotib, ularning ma'lum qismi o'zgarmas bo'lib, hech qanday grammatik shakllarni qabul qilmaydigan holga kelib qolgan, o'zidan oldin kelgan so'zlar bilan birgalikda vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon, obyekt, o'xshatish, payt, masofa, yo'nalish singari grammatik ma'nolarni ifoda etadigan va yordamchi vosita sanaladigan til birliklaridir.[2,4.] Ushbu maqolada bir nechta so'zlar haqida fikr yuritiladi.

Hozirgi kunda o'zbek tilida shunday so'zlar borki, bir o'rinda o'zining atash, leksik-semantik ma'nolarini saqlagan holda ma'lum vazifalarni bajarib keladi, boshqa holatlarda ma'nolarni yo'qotib, transpozitsiya hodisasi ta'sirida ko'makchilashish sodir bo'lib, ko'makchi vazifasini bajarib keladi. Ayniqsa ot so'z turkumiga tegishli bo'lgan bir nechta so'zlarni keltirishimiz mumkin.

**Qo'yin** – so'zi o'z leksik ma'nosidan tashqari ko'makchi vazifasida ham keladi. Ko'makchilashayotgan bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qo'yin- 1). Ko'krak va uni yopib turgan kiyim orasidagi joy. Bo'taboy qo'ynidagi gazetalarni olib otboqarga berdi. 2). Ko'chma. Quchoq, og'ush degan ma'nolarni anglatadi.

*Yodlaringga olurmisan sirli damlarni*

*Yodlaringga olurmisan shirin g'amlarni*

*Yoqib qo'yib tun qo'ynida yoki shakllarni*

*Meni yodga olurmisan, ey go'zal ayol?![3,12.]*

Ushbu misrada keltirilgan tun qo'ynida so'z birikmasi tarkibidagi qo'yni so'zi o'zining asl denotativ ma'nosini yo'qotib, tun vaqtida degan ma'noni yuzaga chiqargan. Aslida qo'yin so'zi shaxs va tabiatdagi jonli narsalarga tegishli bo'lgan so'z hisoblanadi. Jonsiz predmetlarga nisbatan qo'llanilib, ko'makchi vazifasini bajarib keladi. Masalan, Cho'lponning "Qor qo'ynida lola" deb nomlangan hikoyasini keltirishimiz mumkin.

**Og'ush** - so'zini izohli lug'atda quchoq, qo'yin, bag'ir kabi ma'nolari aytib o'tilgan. Masalan, Ra'no javob bermay, Anvarning og'ushidan o'zini qutqazib o'rnidan turdi. [A.Qodiriy]

*Derazangni chertganida yomg'ir-u shamol*

*Og'ushiga olganida cheki yo'q xayol*

*Sochlaringdan siring'alarkan qirmizi ro'mol*

*Meni yodga olurmisan, ey go'zal ayol?! [Xurshid Davron]*

Ushbu misrada uchrovchi xayol og'ushi birikmasi tarkibidagi og'ush so'zi ot so'z turkumiga mansub bo'lib, bu yerda asl denotativ ma'nosini yo'qotib, mavhumlashib metaforik yo'l bilan ko'chma ma'no ifodalab, ko'makchi vazifasini bajarib kelgan. Aslida xayol og'ushi bo'lmaydi.

**Lab** – so'zi aslida ot so'z turkumiga kiruvchi so'z bo'lsa-da, u bundan tashqari boshqa turkum vazifasini ham bajarib keladi. Lab so'zining o'zbek tilining izohli lug'atida bir nechta izohlari keltirilgan.

1. Og'iz atrofining yuqori va quyi tomonidagi et-mushakdan iborat harakatchan qismi; dudoq. Yo'lchi nayni labiga qo'yib, butun zavqi bilan chala ketdi. [Oybek, Qutlug' qon.]
2. Idish og'zining aylana cheti; zih. Qozon labi. Lab urmoq labini qaytarib himarmoq.
3. Qirg'oq, yoqa, chet. Daryo labi.
4. Yerdan baland yassi sathning cheti, chekasi. Tomning labi. [1,424] Lab so'zining izohli lug'atda shunday ma'nolari berib o'tilgan.

*Salqin saharlarda, bodom gulida*

*Binafsha labida, yerlarda bahor*

*Qushlarning parvozi, yellarning nozi,*

*Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor ...*

Ushbu misrada uchrovchi labida so'zi o'zining leksik ma'nosini yo'qotib, mavhumlashib ko'makchi vazifasini bajarib kelgan.

**Bel** – so'zining o'zbek tilining izohli lug'atida bir nechta izohlari keltirilgan.

1. Orqa suyakning pastki qismi. Yerni belingiz qayishib chopganingizda joningiz achir edi. [Abdulla Qahhor, Qo'shchinor].

2. Gavdaning ko'krak qafasi bilan buksa o'rtasidagi eng xibcha qismi. "Tortishmachoq" boshlandi: qiz tomondan yum-yumaloq xotin belini belbog' bilan mahkam bog'lab, o'rta tushdi. [Oybek, Qutlug' qon].

3. Kiyimning eng xibcha, o'rta qismi. Beli Burma ko'ylak.

4. Ko'chma, yon, cho'ntak yoki belbog' haqida. Besh- o'n qog'ozni belimga tugib, ust-boshimni but qilib, yurtimga jo'nab ketay degandim. [Oybek, Qutlug' qon].

5. Yer qazish, sochilgan narsalarni olish, solish, to'plash uchun ishlatiladigan yog'och sopli temir qurol. Belni peshlagan bilar, yerni ishlagan bilar. [1,424]

Burungi o'tgan zamonda, el-yurti omonda, Buxorodan tumanda, Taka- yovmit deganda, Yovmit elida, Chambilning belida Go'ro'g'libek davrini surib, dushmanning dodini berib o'tdi.[3,132.]

Ushbu gapda keltirilgan bel so'zi aslida ot so'z turkumiga tegishli hisoblanadi. Biroq bu yerda Chambilning belida ya'ni Chambilning markazida ma'nosini ifodalab, ko'makchilashish hodisasi natijasida ko'makchi vazifasini bajarib kelgan. Aslini olganda biror bir joyning beli bo'lmaydi, bu o'sha joyning markazida, o'rtasida kabi ma'nolarni ifodalab kelgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z turkumlari o'rtasida transpozitsiya hodisasi sodir bo'lib, bir turkumga doir bo'lgan so'z boshqa turkumga ko'chib, uning vazifasini bajarishi mumkin. Shunday birliklar borki, ular mustaqil turkum va yordamchi turkum funksiyalarini bajarish xususiyatiga ega. Ular yozuvchi tanlovi bilan nasriy va nazmiy matnlar tarkibida qo'llaniladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти, 2006-2008, I том.
2. Erbutayeva Sh.U. Ko'makchi so'zlarning badiiy matndagi leksik tahlili. / Journal of new century innovations. Volume – 6\_ Issue-1\_May\_2022 102.
3. <https://tafakkur.net/sherlar/xurshid-davron>
4. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. Adabiyot, 7-sinf, – Toshkent.: Respublika ta'lim markazi, 2022. 132- bet.
5. <https://tafakkur.net/namatak/muso-toshmuhammad-ogli-oybek.uz>